

**SamDVMCHBU "Veterinariya profilaktikasi va davolash" fakulteti 1-bosqich
talabalariga "Veterinariya zoologiyasi" fanidan v.f.b.f.d. (PhD), v.b. dotsent
K.X.Urokovning "Qorinoqqli mollyuskalarni farqlash" mavzusidagi
laboratoriya mashg'ulot darsi bo'yicha ishlanmasiga
TAQRIZ**

K.X.Urokov tomonidan veterinariyada muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan mollyuskalar to'g'risidagi "Qorinoqqli mollyuskalarni farqlash" mavzusida tayyorlangan laborotoriya mashg'uloti "Veterinariya zoologiyasi" fanidan 60840100-Veterinariya medisinasi (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabarlari uchun namunaviy o'quv dasturiga mos keladi.

"Qorinoqqli mollyuskalarni farqlash" mavzusidagi laborotriya mashg'ulot darsi bo'yicha ishlanmada, veterinariyada muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan mollyuskalar to'g'risidagi ma'lumotlar va mavzuga doir nazorat savollari ham mavjud.

Mavzuni yoritib berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan maqsadli va o'rinli foydalanilgan mollyuskalar to'g'risida batafsil nazariy va amaliy jihatni yorituvchi ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bugungi kunda veterinariya amaliyotida ayrim trematodozlarni tarqalishidagi oraliq xo'jayin o'rni va qishloq xo'jaligining dehqonchilik sohasidagi parazitlik mohiyati to'g'risida keng tushunchalar berilgan.

Laboratoriya mashg'ulot, sodda tushunarli o'zbek tilida yozilgan bo'lib, talabalar o'zlashtirish uchun oson. Mashg'ulotga oid ma'lumotlar o'z o'rnida izoh bilan berilgan.

Muallif mavzuni to'liq yoritib, uni o'rganuvchi o'qiganda oddiy va tezda tushuncha hosil qilishiga erishadi. Ushbu laborotriya mashg'ulot veterinariya medisinasi ta'lim yo'nalishida tahsil oladigan talabalar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ularni bilim darajasini oshirishda hamda kelgusida ishlab chiqarishda foydalanishda amaliy dastur bo'lib hizmat qiladi.

K.X.Urokovning "Qorinoqqli mollyuskalarni farqlash" mavzusidagi laborotriya mashg'ulot darsining ishlanmasini o'quv mashg'ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**SamDVMCHBU "Parazitologiya"
kafedrasi mudiri, v.f.d., proffessor**

A. Daminov

SamDVMCHBU Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti
Parazitologiya kafedrasining v.f.b.f.d. (PhD), v.b. dotsent K.X.Urokovning
“Qorinoyoqli mollyuskalarni farqlash” mavzusidagi laboratoriya mashg‘ulot
darsi bo‘yicha ishlanmasiga

TAQRIZ

Muallif tomonidan “Qorinoyoqli mollyuskalarni farqlash” mavzusida yozilgan laboratoriya mashg‘uloti “Veterinariya zoologiyasi” fanidan 60840100-Veterinariya medisinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich talabalari uchun namunaviy o‘quv dasturi asosida yozilgan.


Laboratoriya mashg‘ulot darsi mavzusi fan dasturi va fanning ishchi rejasiga mos keladi, laboratoriya mashg‘ulot darsi matni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri taqdimot qilingan. Dastlab mashg‘ulotning maqsadi va rejalari, laboratoriya mashg‘ulotining o‘qitish pedagogik texnologiyasi berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan va taqdimot qilingan.

Dars ishlanmasida chorvachilikda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan molluskalar to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan va mavzuga doir nazorat savollari ham mavjud. Test savollari, nazorat savollari, vazifa va aqliy xujum savollari, adabiyotlar ro‘yhati berilgan.

Ishlanmada yangi texnologiyalar (aqliy hujum, klaster, kichik guruhlarda ishlash) shuningdek darsda axborot texnologiyalaridan foydalanilib laboratoriya mashg‘uloti to‘liq taqdimot qilingan.

K.X.Urokovning “Qorinoyoqli mollyuskalarni farqlash” mavzusidagi laboratoriya mashg‘ulot darsining ishlanmasi hozirgi zamon ta‘lim texnologiyasi talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv mashg‘ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.

Veterinariya va chorvachilik sohasida
pedagog hamda mutaxassis kadrlarni
qayta tayyorlash va ularning malakasini
oshirish instituti direktori, v.f.d. professor.

 **R.B.Davlatov**

